



TEMURIYLAR DAVLATINING TANAZZULGA YUZ TUTISH SABABLARI

Raxmonova Nafosat Bohodirovna

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar
uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar
maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz tarixidagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan Temuriylar davlatining parchalanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Amir Temur, Movarounnahr, Xuroson, Shoxruh, Ulug'bek, Samarqand, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Shayboniyxon.

1405-yilda Amir Temur vafotidan so'ng uning yirik davlati parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli davlatning bo'linishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Sohibqiron taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo'lsada, ko'pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405 yil mart oyida Temurning boshqa bir nabirasi Xalil Sulton Samarqand taxtini egalladi. Undan tashqari, Xurosonda Shohruh; Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad; G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abu Bakr Mirzo; Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda Amir Berdibek; O'ratepa va Farg'onada amir Xudoydod; Xorazmda amir Idiku o'zlarini hukmdor deb e'lon qildilar.

Mamlakatdagi parokandalik va o'zaro urushlarga barham berish uchun Shohruh Mirzo ko'p sa'yi-harakatlar qildi. XV asrning 20-yillariga kelib Amir Temur mulklarining qariyb hammasi Shohruh va uning oila a'zolari qo'l ostida edi. Movarounnahr yerlarini 1409 yildan boshlab Shohruhning to'ng'ich o'g'li Mirzo Ulug'bek boshqara boshladi. Ulug'bekning



hukmronlik davri (1409-1449 yy.) asosan, Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ulugʻbek bobosi Amir Temur kabi harbiy isteʼdodga ega emas edi. U mamlakat ichidagi va atrofidagi osoyishtalikni saqlab turish maqsadida ayrim harbiy yurishlar qilib turdi xolos. 1447-yilda Shohruh Mirzo vafotidan soʻng Temuriyzodalar oʻrtasida kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulugʻbek bu kurashlarga barham berishga harchand harakat qilmasin buning uddasidan chiqolmadi. Aksincha, oʻgʻli Abdulatifning bevosita ishtiroki tufayli oʻzi bu kurashlarning qurboni boʻldi. Xullas, XV asrning oʻrtalariga kelib, Mirzo Ulugʻbek vafotidan keyin (1449 y.) Temuriy shahzodalar oʻrtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi. Abduqosim Bobur (1452-1457) va Abdusaid Mirzolarining (1458-1468) faoliyati ham oʻzaro urushlarga barham bera olmadi. 1469-yilga kelganda Xurosonda Xusayn Boyqaro hokimiyatni egallab, bu hududlarda nisbatan tinchlik oʻrnatdi. Uning doʻsti-buyuk shoir Alisher Navoiy (1441-1501) muhrdor, vazir, Astrobod hokimi lavozimlarida ishlab, Xuroson ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol oʻynaydi. Navoiyning saʼy-harakatlari bilan Hirotda ilm-fan, madaniyat gurrakab rivojlandi. Oʻzaro urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnahrda esa bu davrga kelib siyosiy tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharlarda temuriy shahzodalar oʻzlarining mustaqil hukmronligini oʻrnatishga harakat qildilar. Ular hokimiyat uchun oʻzaro kurashlarda Dashti Qipchoq qabilalari kuchlaridan foydalanishar edilar. Masalan: 1451-yilda Urusxonning nabiralari Abu Saidga hokimiyatni egallash uchun yordam bergan boʻlsa, oradan uch yil oʻtgach Abulxayron Muhammad Juqiyga hokimiyatni egallashga koʻmaklashdi. Bu oʻzaro kurashlar Movarounnahr ahlining ahvolini yomonlashishiga olib keldi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarning bir-biridan oʻzaro mustaqil boʻlgan uchta hokimiyat vujudga keldi:

1. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1468—1503);
2. Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi (1468-1498);
3. Andijonda Umarshayx I Mirzo hukmronligi (1468-1494).



Bu uchala davlatning o‘zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta’lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbaxt Dashti Qipchoqda dasht urug‘larini birlashtirib, o‘z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh temuriylar, goh shimoldagi mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487-88 yillarda O‘tror, Sayram, Yassa (Turkiston), Sig‘noq shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, Amir Temur 33 yillik faoliyati davomida tiklagan qudratli va markazlashgan davlat, uning avlodlari davrida taxt uchun o‘zaro kurashlar natijasida mayda bo‘laklarga bo‘linib ketdi. Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar qo‘shni hududlardan dushman xavfini oshirdi. Shayboniyxon boshchiligidagi o‘zbeklar aynan shunday xavf edilar va ular keyinchalik butun Movarounnahr va Xurosonni egallashdi.

ADABIYOTLAR:

1. Qudratov S., Omonqulov T. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. –Guliston, 1995.
2. Asqarov A. O‘zbekiston xalqlari tarixi. 1-jild. –T., 1993.
3. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. –T., 1994.
4. Sagdullaev A. O‘zbekiston tarixi. –T., 1997.
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. –T., 1998.